

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK O‘QITUVCHILARINING AXBOROT OLISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Djuzboyeva Mavluda Tilovboyevna

TerDUPI Ta‘lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta‘lim)
mutaxassisligi II- bosqich magistranti

Annatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak texnologik o‘qituvchilar axborot olish kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi haqida fikrlar bayon qilingan. O‘qituvchilarning axborot olish kompetentligini rivojlantirish tizimini to‘g‘risida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlari: Tajriba-sinov, axborot, kompyuter, kompetentlig, texnologiya, pedagog, mutaxassis, o‘quv-metodik, ilmiy ommabop pedagogik, psixologik

Аннотация:

В данной статье изложены представления о методике организации экспериментальной работы по развитию информационно-воспринимающей компетентности будущих технических педагогов.

Ключевые слова: опыт-тест, информация, компьютер, компетентность, технология, педагог, специалист, учебно-методический, научно-популярный, педагогический, психологический.

Annotation:

This article presents ideas about the methodology for organizing experimental work on the development of information-perceiving competence of future technical teachers.

Key words: experience-test, information, computer, competence, technology, teacher, specialist, educational and methodical, popular science, pedagogical, psychological.

Tajriba-sinov maydonlariga qo'yilgan talablar shaxsning shakllanishiga doir kompleks yo'llanmasini belgilab berish, inson kamolotini ta'minlaydigan jamiyatda mustaqil o'z o'rnini topib olishni ta'minlab beradigan o'quv dasturlari qo'llanmalarini yaratishga xizmat qilish kerak.

Shunday ekan, tajriba-sinov nima, u qanday tashkiliy-pedagogik tadbirlardan boshlanadi? Tajriba-sinov maydonlari qanday bo'lishi kerak?

Uning birinchi sharti pedagogik tadqiqotlar o'tkazish yo'lida pedagogik kadrlarni tanlay bilish, ularni o'qitish, masalaning tub mohiyatiga olib kirish, aniq maqsad va vazifalarni to'g'ri, xolislik bilan, yaxshi sifatli bajarishga ularni safarbar etish.

Shakllantiruvchi bosqich (bo'lajak o'qituvchilarning axborot olish kompetentligini rivojlantirishda bo'lajak o'qituvchining mustaqil axborotlar manbasini qidirish, tanlash va yaratilgan saytlardan foydalanish imkoniyatlari hamda auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogic va axborot texnologiyalarini qo'llash orqali axborot olish kompetentligini rivojlantirish metodikasi ochib berildi);

Nazorat qiluvchi bosqich (pedagogic tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalarni sifat va miqdor

Tadqiqot ishining tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasini quyidagi ko'rinishda tashkil etildi:

Tajriba sinov ishlari o'tkazishda dastlabki kirish bosqichida bajarilgan vazifalar:

Faoliyatturi	Tadqiqotmetodi
Tadqiqot ishining dolzarbligi muammoligini qilanadi.	Ilmiy ommabop pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish.
Tadqiqot ishi mavzusini aniqlash, mavzuga asosan reja tuzish.	Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish.
Tajriba-sinov dastur va metodikasini ishlab chiqish.	Ilg'or va ishlab chiqilgan tajribalarni o'rganish va ommalashtirish.
Tajriba-sinov obyektini va maydonlarini belgilay olish.	Tajriba-sinov ishida bajariladigan vazifalarni belgilab olish va o'tkazish.



Metodik jihatdan mahoratli, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, diagnostikaning insonni shakllantirishdagi ahamiyati, rivoji, kamolotini chuqur anglab yetishi;

- ☐ yuqori darajada madaniyatli, insonparvar, har bir sharoitda ham bolanitushunadigan, ijodkor, fidoiy, o'zishigajonkuyar, talabchan bo'lishi;
- ☐ o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblarini olib borayotgan tadqiqot ishidan kutilayotgan maqsad va vazifalari bilan puxta tanishtira olish;
- ☐ o'zi olib borayotgan tadqiqot ishining maqsadi, g'oyasi va vazifalarini chuqur o'zlashtirgan, tajriba-sinov yakunlariga optimistik yondosha oladigan vah.k.).

Tajriba-sinov ishlari samarasi nima bilan o'lchanadi?

Eng pirovard natijada: o'qituvchi qanday bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ldi? bo'lajak o'qituvchi o'zi mustaqil mutaola qila olish, qo'shimcha manbalar bilan ishlay olish qobiliyatining rivojlanganligi, mustaqil component yoki axborot olish malakasining shakllanganligi; munozara, bahsyuritish, fikrlash qobiliyatining o'sganligi bilan va h.k.

Dissertatsiya ishini bajarish davomida texnologik darslarini o'tishda davlat ta'lim standarti asosida axborot texnologiyani qo'llagan holda, o'qitish vositalarining o'rini belgilagan holda bo'lajak o'qituvchilarning axborot olish kompetentligini rivojlantirish ijobiy natijalarga erishish mumkinligi ilmiy asoslandi.

Tajriba-sinov ishlari Q.M.Abdullayeva, V.P.Bespalko, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, SH.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov va boshqalarning ilmiy ishlarida keltirilgan tavsiyalar, ko'rsatmalar asosida, davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim maqsadlariga mos ravishda olib borildi. Tajriba-sinov ishlari tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lgan, shartli ravishda "tajriba guruhi" va "nazorat guruhi" deb belgilab olingan guruhlarda o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari bir xil material va ikki xil metodikadan foydalaniladi. Holda o'tkazilib, ikkala guruh talabalarida shakllangan axborot olish kompetentligida rejalari tadqiqot metodlaridan anketa, so'rov noma o'tkazilib, axborot olish kompetentligi darajasi taqqoslandi. Shuningdek, "Texnologik metodikasi" o'quv predmetining mazmuni, o'rganish shart-sharoitlari, metodlar tanlab, savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, talabalarning bilimni nazorat qilish, axborot texnologiyalaridan foydalanish va o'quv mashg'ulotlarda, malakaviy amaliyotda qo'llash bo'yicha baholash mezonini ishlab chiqildi.



Talabalar bilimlari hamda uni amaliy faoliyatda qo'llay olishini baholashda 100 ballik reyting tizimidan foydalanildi. O'qituvchi egallagan bilim va ko'nikmalar ta'lim standartlari talablariga qay darajada javob beraoladi?

ishlari vazifalari quyidagicha aniqlandi:

85-100 ball. Eng yuqori (a'lo) O'quv materialini axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lgan, axborotlarni qidirish, topish, tahlil qilish, axborotni olish kompetentligini shakllanganlik darajasi oshishi, topshiriqlarni vaqt me'yori doirasida bajarish.

71-85 ball. Yuqori (yaxshi) - O'quv materialini axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lgan, axborotlarni qidirish, topish, axborotni olish kompetentligini shakllanganlik darajasi rivojlanganligi, topshiriqlarni vaqt me'yori doirasida bajararganligi uchun qo'yildi.

55-71 ball. O'rta (qoniqarli) - O'quv materialini axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lgan, axborotlarni qidirishda maqsaddan chetlashganligi, topishda vaqt me'yorining oshganligi, tahlil qilishda idrok etish qobiliyatining pastligi, axborotni olish kompetentligini shakllanganlik

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: OO'MTV, 2010y.
2. Hamidov J.A., To'rabekov F.S. O'quv jarayonida kompyuterli o'qitish texnologiyasidan foydalanish samaradorligini aniqlash mezonlarini tanlash va asoslash // Maktab va hayot. – Toshkent, 2000 yil

